

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 449 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSİYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safayev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLİYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	



MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH

Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich

NamDTU Menejment kafedrası DSc, professori

E-mail: bahodir73@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida uy xo'jaliklari jamg'armalarining milliy iqtisodiyot uchun investitsiya resursi sifatidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida uy xo'jaliklarining demografik tarkibi, iste'mol-jamg'arma nisbatining shakllanishi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishning jamg'arma salohiyatiga ta'siri o'rganildi. Statistika ma'lumotlariga asoslangan tahlillar uy xo'jaliklarining kichiklashuvi jamg'arma ulushining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Hududiy daromadlar dinamikasi esa jamg'armalarning mintaqaviy konsentratsiyasi kuchayib borayotganini tasdiqladi. Shuningdek, moliyaviy vositachilikning rivojlanganlik darajasi jamg'armalarning investitsiya resursiga aylanishida hal qiluvchi omil ekani aniqlangan. Maqolada jamg'arma potensialini oshirish va uni investitsion oqimlarga samarali yo'naltirish bo'yicha institutsional va iqtisodiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uy xo'jaliklari jamg'armalari, investitsiya resurslari, demografik tarkib, moliyaviy vositachilik, hududiy iqtisodiy rivojlanish, jamg'arma salohiyati, milliy iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the importance of household savings as an investment resource for the national economy in the conditions of Uzbekistan on a scientific basis. During the study, the demographic composition of households, the formation of the consumption-savings ratio, and the impact of regional economic development on the savings potential were studied. Analysis based on statistical data showed that the decrease in household size has a positive effect on the increase in the share of savings. The dynamics of regional incomes confirmed the increasing regional concentration of savings. It was also found that the level of development of financial intermediation is a decisive factor in the transformation of savings into an investment resource. The article develops institutional and economic proposals for increasing the savings potential and effectively directing it to investment flows.

Keywords: household savings, investment resources, demographic composition, financial intermediation, regional economic development, savings potential, national economy.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируется значение сбережений домохозяйств как инвестиционного ресурса для национальной экономики в условиях Узбекистана. В ходе исследования были изучены демографический состав домохозяйств, формирование соотношения потребления и сбережений, а также влияние регионального экономического развития на потенциал сбережений. Анализ, основанный на статистических данных, показал, что уменьшение размера домохозяйств положительно влияет на увеличение доли сбережений. Динамика региональных доходов подтвердила рост региональной концентрации сбережений. Также было выявлено, что уровень развития финансового посредничества является решающим фактором в трансформации сбережений в инвестиционный ресурс. В статье разрабатываются институциональные и экономические предложения по увеличению потенциала сбережений и его эффективному направлению в инвестиционные потоки.

Ключевые слова: сбережения домохозяйств, инвестиционные ресурсы, демографический состав, финансовое посредничество, региональное экономическое развитие, потенциал сбережений, национальная экономика.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni samarali taqsimlash mexanizmlarining takomillashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun, xususan O'zbekiston singari mamlakatlarda, investitsiyalarni moliyalashtirishning barqaror manbalarini izlash iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur jarayonda aholining, ya'ni uy xo'jaliklarining jamg'arma faoliyati muhim investitsiya resursi sifatida e'tirof etilmoqda.

Uy xo'jaliklarining jamg'armalari iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat aholi farovonligi darajasini belgilaydi, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligiga ham xizmat qiladi. Uy xo'jaliklari mavjud daromadining tarkibida iste'mol va jamg'arma ulushi o'rtasidagi muvozanatning to'g'ri shakllanishi iqtisodiy o'sishning manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ya'ni,

iste'mol xarajatlarining o'sishi yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmini ko'paytirsa, jamg'armalarning o'sishi esa investitsiya faoliyatini kengaytirish orqali iqtisodiyotning real sektoriga qo'shimcha kapital yo'naltiradi.

O'zbekiston misolida, oxirgi yillarda aholining real daromadlari va moliyaviy faoliyatidagi o'zgarishlar jamg'arma salohiyatining ortib borayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika agentligi va Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, aholi omonatlari va investitsion qimmatli qog'ozlarga talab yildan-yilga oshmoqda. Bu esa, moliyaviy tizimning barqarorlashuvi va aholining iqtisodiy ishonchini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Uy xo'jaliklarining jamg'arma faoliyatini faollashtirish va ularni milliy iqtisodiyot uchun investitsiya resursiga aylantirish zamonaviy moliyaviy infrastrukturaning rivojlanishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish, kapitallar bozorini chuqurlashtirish, pensiya va sug'urta tizimlarining takomillashuvi kabi chora-tadbirlar aholi jamg'armalarini iqtisodiyot aylanishiga jalb etishning asosiy shartlaridir.

Jamg'armalarning iqtisodiyotdagi funksional roli ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: bir tomondan, ular davlat va xususiy sektorga investitsion resurs sifatida xizmat qiladi; ikkinchi tomondan, ijtimoiy himoya tizimiga tushadigan bosimni kamaytirib, aholi to'lov qobiliyatini mustahkamlaydi. Natijada iqtisodiyotning ichki investitsion salohiyati kengayadi, tashqi qarz manbalariga qaramlik kamayadi va barqaror o'sish uchun moliyaviy baza yaratiladi.

Shunday qilib, uy xo'jaliklari jamg'armalarining o'sishi va ularni iqtisodiy aylanishga samarali jalb etish milliy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston sharoitida uy xo'jaliklarining jamg'arma salohiyatini milliy iqtisodiyot uchun investitsiya resursi sifatida rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni faollashtirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida uy xo'jaliklarining jamg'arma faoliyati va ularning investitsion resurs sifatidagi roli bo'yicha ilmiy tadqiqotlar xalqaro iqtisodiyot nazariyasida ham, milliy iqtisodiy adabiyotlarda ham muhim o'rniga ega. Ushbu yo'nalishning nazariy poydevori asosan iste'mol va jamg'arma xulq-atvori, moliyaviy vositachilik samaradorligi hamda kapitalning shakllanishi bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarga tayanadi.

Birinchidan, J.M.Keyns[1] tomonidan ishlab chiqilgan iste'mol funksiyasi nazariyasi uy xo'jaliklarining mavjud daromadiga bog'liq tarzda jamg'arma ulushi shakllanishini asoslab beradi. Keynsning fikricha, jamg'arma iste'molga nisbatan ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, u iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi sifatida kapital qo'yilmalarga ta'sir ko'rsatadi. Keynsiy yondashuv keyinchalik F.Modigliani[2], A.Ando[3] va ularning "Hayotiy tsikl gipotezasi" tomonidan to'ldirib borildi. Ushbu gipotezaga ko'ra, uy xo'jaliklari jamg'arma qarorlarini nafaqat joriy daromad, balki kelajakdagi kutilmalar va demografik omillar asosida shakllantiradi. Mazkur nazariyalar rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, jumladan O'zbekiston sharoitida ham jamg'arma xulq-atvorini tushunishda asosiy metodologik manbadir.

Ikkinchidan, jamg'armalarning investitsiya resursiga aylanish mexanizmlarini o'rganuvchi ilmiy ishlarda moliyaviy vositachilik samaradorligi alohida e'tirof etiladi. R.Levine[4], D.McKinnon[5], E.Shaw[6] kabi tadqiqotchilar moliyaviy sektor rivojlangan sari uy xo'jaliklarining bo'sh mablag'larini iqtisodiy aylanishga jalb qilish imkoniyatlari ortishini asoslab bergan. Ularning tadqiqotlari banklar, kapitallar bozori, pensiya jamg'armalari va sug'urta tizimining iqtisodiyotdagi investitsion oqimlarni shakllantirishdagi o'rnini nazariy jihatdan yoritadi. Shuningdek, moliyaviy infratuzilmaning diversifikatsiyasi uy xo'jaliklarining jamg'arma instrumentlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, investitsion faollikni oshirishini ko'rsatadi[7].

Uchinchidan, O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda aholi jamg'armalari bozor infratuzilmasining takomillashtirilishi, bank tizimidagi islohotlar, kapital bozorining rivojlanish bosqichlari hamda makroiqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Mamlakatda oxirgi yillarda raqamli bank xizmatlarining kengayishi, majburiy va ixtiyoriy pensiya tizimi islohoti, davlat qimmatli qog'ozlari bozorining rivojlanishi aholi jamg'armalarining moliyaviy tizimga kirib kelishini rag'batlantiruvchi omillar sifatida ilmiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, demografik tarkib, real daromadlarning o'sishi, ishonch indeksining ko'tarilishi va moliyaviy savodxonlik darajasining oshirilishi jamg'arma salohiyatini shakllantiruvchi muhim determinatorlar sifatida e'tirof etiladi.

Xalqaro tajriba ham uy xo'jaliklari jamg'armalarining iqtisodiy o'sishdagi rolini tasdiqlaydi. Xususan, Sharqiy Osiyo davlatlarida jamg'arma normasi yuqoriligi investitsiya sur'atlarining tizimli ravishda yuqori bo'lishiga xizmat qilgan[8]. Bu holat O'zbekiston uchun ham ichki moliyalashtirish bazasini kengaytirish, tashqi qarzga qaramlikni kamaytirish hamda barqaror o'sish modelini shakllantirishda muhim metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi jarayonida aholi jamg'armalarining iqtisodiyotdagi o'rnini bo'yicha qator mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan,



M.Xoshimovning asarlarida aholi jamg'armalari iqtisodiy barqarorlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida ko'riladi. Olim aholi iste'moli va jamg'armasi o'rtasidagi nisbat iqtisodiyotdagi umumiy talabning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, "jamg'armalarning o'sishi investitsiya faoliyatiga ijobiy impuls beradi" degan xulosaga keladi[9]. A.G'aniyevning moliya bozorlari bo'yicha tadqiqotlarida aholining bo'sh mablag'larini moliya tizimi orqali iqtisodiy aylanmaga jalb etishning samaradorligi tahlil qilingan[10]. D.Qosimovning ilmiy ishlarida uy xo'jaliklari byudjeti, iste'mol modeli va jamg'arma qarorlarini shakllantiruvchi psixologik hamda iqtisodiy omillar o'rganilgan [11]. O.Abdukarimov daromadlar tabaqalanishi, ijtimoiy-iqtisodiy farqlar va ular jamg'arma salohiyatiga ta'sirini o'rgangan[12] bo'lsa, U.G'ofurov tadqiqotlarida uy xo'jaliklari jamg'armalari milliy investitsiya salohiyatining muhim elementi sifatida talqin qilgan [13]. Sh.Abdullayev uy xo'jaliklari moliyaviy xulqining empirik tahliliga asoslanib, aholi jamg'arma qarorlarida xavfsizlik omili, riskdan qochish darajasi va moliyaviy vositalarga bo'lgan ishonchning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi [14].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili uy xo'jaliklari jamg'armalarining iqtisodiyotdagi o'rni kompleks jarayon ekanligini, u daromadlar dinamikasi, moliyaviy infratuzilma rivoji, institutsional islohotlar darajasi va aholining iqtisodiy xulq-atvori bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur nazariy va empirik manbalar O'zbekiston sharoitida uy xo'jaliklarining investitsiya resursi sifatidagi salohiyatini baholash va uni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston sharoitida uy xo'jaliklarining jamg'arma salohiyatini milliy iqtisodiyot uchun investitsiya resursi sifatida shakllanish jarayonlarini o'rganish, ularning iqtisodiy-moliyaviy xulq-atvorini tahlil qilish va bu jarayonni faollashtirishga xizmat qiluvchi institutsional hamda iqtisodiy mexanizmlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, metodik va empirik yondashuvlarning integratsiyasi asosida ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy xo'jaliklarining demografik tarkibi jamg'arma salohiyatining shakllanishida fundamental omil sifatida e'tirof etiladi, chunki aholining iste'mol va jamg'arma qarorlari oila tarkibining o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Demografik tarkib – uy xo'jaliklaridagi a'zolar soni, ularning yosh tarkibi, iqtisodiy faol bo'lgan shaxslar ulushi va iste'molga yo'naltirilgan xarajatlar strukturasi iborat bo'lib, bu ko'rsatkichlar jamg'arish qobiliyatining tabiiy chegaralarini belgilab beradi. Aholi tarkibining o'zgarishi moliyaviy xatti-harakatlarning shakllanishida mikroiqtisodiy asoslarni yaratadi: oila qancha kichik bo'lsa, iste'mol yuklamasi shuncha past bo'ladi, bu esa ortiqcha daromadni jamg'armaga yo'naltirish imkoniyatini kengaytiradi.

Uy xo'jaligi tarkibining yiriklashishi bilan birga, iste'molning chegaraviy moyilligi ortadi, ya'ni qo'shimcha daromadning katta qismi iste'molga sarflanadi. Ko'p a'zoli uy xo'jaliklarida oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi asosiy xarajatlar hajmi yuqori bo'ladi, bu esa jamg'arma ulushi qisqarishiga olib keladi. Iste'mol xarajatlarning yuqori ulushi jamg'arma uchun bo'sh resurslarni cheklaydi, natijada uy xo'jaliklarining investitsiya faoliyatidagi ishtiroki pasayadi. Bu holat mikroiqtisodiy darajada farovonlik darajasiga, makroiqtisodiy darajada esa milliy iqtisodiyotning investitsiya bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tadqiqotda avvalambor O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklarining a'zolari soni bo'yicha tarkibi bo'yicha tahlilni amalga oshiramiz (1-jadval).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklarining a'zolari soni bo'yicha tarkibi

1-rasmda keltirilgan aholining o'rtacha uy xo'jaligi modeliga yaqinlashuvida 3–4 kishilik uy xo'jaliklarining ulushi 2010–2024 yillarda 18–20 foiz atrofida barqaror bo'lib kelganligini ko'rish mumkin. Bu shuni anglatadiki, jamg'arma xatti-harakatlarining asosiy qatlami aynan ushbu segmentga to'g'ri keladi. Kichik uy xo'jaliklarining ulushi asta-sekin o'smoqda. 1–2 kishilik uy xo'jaliklarining ulushi 2010-yillardagi past darajadan 2022–2024 yillarga kelib bosqichma-bosqich oshgan. Bu ikki asosiy jarayonga shaharlashuvning ortishi va yosh oilalarning ko'payishiga ishora qiladi. Ushbu segment jamg'arma salohiyati bo'yicha eng faol qatlam hisoblanadi, chunki iste'mol yuklamasi katta oilalarga nisbatan ancha past bo'ladi.

Tahlilda keltirilgan uy xo'jaliklari tarkibining o'zgarishi jamg'armalarning iqtisodiy tizimdagi roliga 1–2 kishilik uy xo'jaliklari ulushi oshishi — ularning jamg'arma qilish ehtimoli yuqori bo'lgani uchun bank tizimiga kiradigan omonatlar hajmini ham oshiradi, 3–4 kishilik uy xo'jaliklarining barqaror ulushi — jamg'arma sur'atlari iste'mol barqarorligi bilan uyg'unlashgan holda sekin, ammo barqaror o'sishni anglatadi. Umuman olganda, jamg'arma salohiyatining tarkibiy mustahkamlanishi — oilaviy modelning barqarorligi makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Kichik uy xo'jaliklarining moliyaviy xulqi esa aksincha, jamg'arishga nisbatan yuqori moyillik bilan tavsiflanadi. 1–2 kishidan iborat uy xo'jaliklarida asosiy xarajatlar hajmi past bo'lgani sababli ularning o'rtacha jamg'arma normasi yuqori bo'ladi. Bu segment moliyaviy xizmatlardan faol foydalanadi, omonatlar portfelida muddatli va uzoq muddatli depozitlar ulushi yuqori, bu esa moliyaviy institutlar uchun barqaror kapital manbai hisoblanadi. Ayni paytda, ularning jamg'arma salohiyati iqtisodiyotning investitsiya resurslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Demografik tarkibning jamg'arma xulq-atvoriga ta'siri nafaqat a'zolar soni, balki ularning yosh tarkibi bilan ham belgilanadi. Yosh bolalari ko'p bo'lgan uy xo'jaliklarida ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarining yuqoriligi jamg'arma imkoniyatlarini cheklaydi, biroq mehnatga layoqatli yoshlar ulushi yuqori bo'lgan oilalarda jamg'arma uchun resurslar ko'proq bo'ladi. Aksincha, nafaqadagi keksalar ulushi yuqori bo'lgan uy xo'jaliklarida jamg'arma salohiyati pasayadi va iste'mol ustuvor bo'ladi. Shunday qilib, demografik strukturadagi o'zgarishlar jamg'arma salohiyatining dinamik shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklarining tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilish milliy daromad, iste'mol darajasi va jamg'arma ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Demografik tuzilmaning modernizatsiyasi — oila o'lchamining kichrayishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, yosh oilalar ulushining ortishi — jamg'arma ko'rsatkichlarining oshishiga zamin yaratadi. Bu jarayonlar makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi: ichki bozorda likvidlik ko'payadi, moliyaviy intermediatsiya jarayoni jadallashadi va investitsiyalarning real sektor bo'ylab taqsimlanish salohiyati kuchayadi.

Demografik tuzilmaning jamg'arma salohiyatiga ta'sirini baholashda yana bir muhim omil — mehnatga layoqatli a'zolar ulushi hisoblanadi. Agar bir uy xo'jaligida ishlovchilar soni iste'molchilarga nisbatan yuqori bo'lsa, "daromad yuklamasi" pasayadi va jamg'arma uchun qo'shimcha resurslar paydo bo'ladi. Aksincha, ishlovchilar ulushi kam bo'lgan oilalarda jamg'arma shakllanishi murakkablashadi va iste'mol ustuvor bo'ladi. Bu holat demografik yuk koeffitsienti orqali ham statistik tasdiqlanadi.

Umuman olganda, demografik tarkib jamg'arma salohiyatining shakllanishida asosiy determinantlardan biridir va uning o'zgarishi milliy iqtisodiyotning investitsiya bazasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Demografik o'zgarishlar milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarning tarkibiy qayta taqsimlanishiga sabab bo'ladi, shuningdek, uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligi, moliyaviy xulqi va jamg'arma mexanizmlarining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois demografik asosli jamg'arma tahlili milliy moliyaviy siyosatni shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklarining jamg'arma salohiyati milliy investitsiya resurslarining eng muhim, barqaror va uzoq muddatli manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. O'rganilgan statistik ma'lumotlar, demografik tarkib dinamikasi va hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, uy xo'jaliklari tarkibining o'zgarishi jamg'arma shakllanishining demografik bazasini belgilaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 1–2 kishilik uy xo'jaliklarining ulushi barqaror o'sib bormoqda, bu esa jamg'arma salohiyatining ortishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Katta (5 va undan ortiq a'zoli) uy xo'jaliklarining ulushi esa sekin kamayib bormoqda, bu iste'mol yuklamasining pasayishi va jamg'arma imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi. Demografik tarkibdagi ushbu strukturaviy o'zgarishlar uy xo'jaliklarining moliyaviy xatti-harakatlarida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Ikkinchidan, hududlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi jamg'armalarning mintaqaviy shakllanishida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati kabi iqtisodiy faolligi yuqori hududlar jamg'arma resurslari shakllanishida yetakchi o'rinni egallamoqda. Aholi



daromadlari yuqori bo'lgan hududlarda jamg'arma ulushi yuqori bo'lishi, shuningdek, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatining kengligi investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim viloyatlarda jamg'arma ko'rsatkichlarining pastligi investitsiya oqimlarining markazlashishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, uy xo'jaliklarining jamg'arma salohiyatini milliy iqtisodiyot uchun investitsiya manbai sifatida kuchaytirish moliyaviy vositachilik tizimining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Bank sektorining raqobatbardoshligi, kapitallar bozorining chuqurligi va sug'urta hamda pensiya jamg'armalari tizimlarining samaradorlik darajasi aholi jamg'armalarining investitsiyalarga yo'naltirilish tezligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy infratuzilma rivojlansa, jamg'armalar real iqtisodiyotga yanada faolroq kirib boradi.

To'rtinchidan, jamg'arma salohiyatining oshishi milliy iqtisodiyotda ichki moliyalashtirish manbalarining kengayishiga, tashqi qarzga bo'lgan qaramlikning pasayishiga hamda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Uy xo'jaliklari jamg'armalari milliy investitsiya siyosatida strategik omil sifatida qaralishi lozim, chunki ular iqtisodiy o'sishning ichki va barqaror drayveri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
2. Modigliani, F. (1986). Life cycle, individual thrift, and the wealth of nations. American Economic Review, 76(3), 297–313.
3. Ando, A., & Modigliani, F. (1963). The “life-cycle” hypothesis of saving: Aggregate implications and tests. American Economic Review, 53(1), 55–84.
4. Levine, R. (1997). Financial development and economic growth: Views and agenda. Journal of Economic Literature, 35(2), 688–726.
5. McKinnon, R. I. (1973). Money and Capital in Economic Development. Washington, DC: Brookings Institution.
6. Shaw, E. S. (1973). Financial Deepening in Economic Development. New York: Oxford University Press.
7. World Bank. (2023). Global Financial Development Report. Washington, DC: World Bank Group.
8. Asian Development Bank (ADB). (2022). Household savings behavior in emerging economies. Manila: ADB Publications.
9. Xoshimov, M. (2019). Makroiqtisodiyot. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
10. G'aniyev, A. (2020). Moliya bozori va uning institutlari. Toshkent: Iqtisodiyot.
11. Qosimova, D. (2021). Aholi daromadlari va iste'mol modeli. Toshkent: TSUE nashriyoti.
12. Abdukarimov, O. (2022). Aholi daromadlari va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik. Toshkent: “Iqtisodiy tadqiqotlar”.
13. G'ofurov, U. (2020). Moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sish. Toshkent: “Iqtisod”.
14. Abdullayev, Sh. (2018). Aholining moliyaviy xulqi va jamg'arma tizimi. Toshkent: TSUE.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100